

SA'DIY SHEROZIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY G'OYALARI TAHLILI

Qayumova Feruza Abduvoyitovna

Tojikiston, akademik Bobojon G'afurov nomidagi

Xo'jand davlat universiteti katta o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.12.2025

Revised: 27.12.2025

Accepted: 28.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

axloq, falsafa, ma'naviy-axloqiy
g'oyalar, Sharq klassik adabiyoti,
Sa'diy Sheroziy, "Guliston",
"Bo'ston".

Ushbu maqolada o'rta asrlar
donishmandi, "Sharq axloqi otasi va
g'azalnavislikning payg'ambari" unvonini
olgan, mashhur shoir Sa'diy Sheroziyning
axloqiy qarashlari, inson ma'naviy
yuksalishi yo'lidagi oqilona fikrlarini
o'rganilib, tahlil qilingan.

Ma'lumki, insoniyat dunyosining qirralari ko'p, uning ranglari ajib va gohida hayratlanarlidir. Shu sababli uni anglash, tahlil qilish va baholash o'ta mushkil ishdur. Asrlar davomida turli ilm vakillari tomonidan inson dunyoqarashi, ongi, ruhiga chizgilar turli shakl va mazmunda amalga oshirilib kelinadi. Ayniqsa, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot va umuman odamzod ruhi bilan bog'liq barcha fanlarda uning psixologiyasiga turli tomonlardan yondashuvlarni guvohi bo'lamiz. Inson ruhiyati, undagi yetuklik omillari, komillik jarayoni azaldan ilm va adabiyot ahlining, ayniqsa, mutafakkir klassik shoirlarimiz ijodining markazida turgan muhim bir masala desak xato bo'lmas. Bir narsani ta'kidlash lozimki, Sharq klassik adabiyoti, maxsus, fors va turk adabiyoti vakillari birgina adabiyot sohasida chegaralanib qolmay, haqiqiy ma'nodagi mutafakkir faylasuf shoirlar edilar. Ular o'z asarlarida komil inson tarbiyasiga oid durdona fikrlarni bayon etib, odamzod bolasini yuksaklikka, ma'naviy kamolotga boshlaydilar. Shu sababli ularning ilmiy va badiiy asarlarini alohida o'rganib, yosh avlodga targ'ib etish bugungi kun uchun o'ta muhimdir. O'rta asrlarning ana shunday donishmand, daho shaxslaridan biri – "Sharq

axloqi otasi va g'azalnavislikning payg'ambari" unvonini olgan, mashhur shoir Sa'diy Sheroziydir.

Shayx Sa'diy Sheroziy o'zining betakror va yuksak saviyali asarlari bilan nafaqat mumtoz fors va tojik adabiyotida o'ziga xos mavqega ega, balki jahon adabiyotining daho shoirlaridan sanaladi. Shu ma'noda o'zbek xalqi va adabiyoti vakillari ham Shayx Sa'diyning boy ijodidan unumli bahramand bo'lganlar. Sa'diy asarlari asl nusxada ham, tarjimada ham turkiyzabon xalqlar orasida boshidanoq mashhur bo'lgan. Shoirning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari madrasalarda darslik sifatida o'qitilib, katta-kichik yig'inlarda Sa'diyning hikmatli fikrlari tahlil va talqin etilgan. Turkiy tilda mashhur "Guliston" va "Bo'ston" asarlarining o'zbek tiliga ko'plab tarjimalari va sharhlarning paydo bo'lishi bu fikrlarimizning isbotidir. Shunday qilib, Shayx Sa'diy o'z asarlarida o'nlab a'loqiy masalalar to'g'risidagi o'zining hayotiy tajribalarga asoslangan donishmand fikrlarini bayon etadi va bu orqali insonning har tomonlama yetuk va axloqiy jihatdan go'zal bo'lishini orzu qiladi. U bani odamni, jumla basharni bir tananing a'zolari deya yuksak bir aqidani oldinga suradi.

Sa'diy o'zining tarbiyaviy asarlarida ilm bilan birga hunarning ham muhimligini, insonga zarurligini ta'kidlaydi, zero hunarmandlik, mehnatkashlik insonning nafsiyu tanini tarbiyalaydi:

Aqlli kishilar hunar orttirar,

Qoringa qul ersa, hunarsiz qolar. Bo'lur
baxtiyor, kimki xilvat aro, Bilimdan olur
hissasin doimo...

Sa'diy gumanist shoirdir, uning gumanizmi faqat odamga rahm-shafqat bilan qarashdangina iborat bo'lmay, mehnatkash xalqni ezib, qonini ichuvchi zolimlarga qarshi nafrat hislarida ham namoyondir. "Guliston"-da keltirilgan bir hikoyada shunday deydi:

Ey zarabdastu zolim, dilozor,

Qizur qachongacha bu zulmi bozor? Jahondor
yasharkan sohib ming balo Mardum ozorlikdan o'lgani
a'lo!

Yoki yana bir qit'ada xayrli ishlarni qilgan kishi o'zining bu amali bilan kibrlanmasligi kerak, deya ta'kidlaydi:

G'ururlanma xayr aylasang bir nima,

Bo'laklar gado, men ulug'man dema.

Qo'lingdan agar kelsa ishla mudom, Ki
mehnatchini el qilur ehtirom.

Inson tarbiyasida eng muhim narsa bu to'g'rilik va rost so'zlash bo'lib, yolg'on eng yomon xislatlardan sanaladi. Sa'diy ham to'g'rilikni insonga obro' va e'tibor keltiradigan, insoniylik qadrini oshiradigan eng muhim fazilat hisoblaydi va shunday deydi:

Rostlikdan bosh tortmas hech dono inson, Rostlikdan odamga
kelur ardoq-shon.

Dil agar rostlikni estang ixtiyor,
Dunyo xalqi senga bo'lur do'stu yor.

Dar haqiqat tabiatida yolg'onchilik, firibgarlik bor bo'lgan kishilar jamiyatning illatidirlar, ularga ishonib ham bo'lmaydi, do'stlik ham qilish mumkin emas. Sa'diyning fikricha, yolg'on insoninni sharmanda qilib, insonlik obro'siga putur yetkazadi:

Yolg'on beviqor qilur odamni,
Yolg'on sharmsor qilur odamni.
Yolg'onchidan ordir oqillar ishi,
Yolg'onchini odam demas hech kishi.

Yolg'onni, birodar, so'zlama zinhor,
Yolg'onchi doim xor, topmas e'tibor.

Bu mavzuda juda ko'p misollarni Sa'diy asarlarida uchratishimiz mumkin.

U odamlarning qiyofasiga qarab emas, xulqiga qarab munosabatda bo'lish kerakligini uqtiradi. Shoirga ko'ra, yaxshi kishilar bilan yaxshi munosabat qilish to'g'ridir, biroq yomon xulqli kishilar oldida mehribonlik va g'amxo'rlikning qadr qiymati yo'qdir:

Yaxshiga yaxshi bo'l, yomonga yomon,
Gullarga gul bo'lu tikanga tikan

Ushbu fikrni yana bir she'riy parchada davom etdirib, rahmdillikni yaxshi fazilat ekanligini, biroq nomardlar uchun rahmdillik qilish aslo kerak emasligini uqtiradi:

Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo- Xalqozor yarasiga
qo'ymagil malham.

Aylama rahm-shafqat ilon xayliga,
Bu ishdan ozor topur farzandi odam.

Ilm-ma'rifat azaldan xalqimiz intiladigan yuksak bir omildir, Sharq xalqlari juda qadim zamonlardan izlanuvchan, o'qib-o'rganishga moil donishmand xalq bo'lishgan. Ba'zi notinch davrlarda ilm o'rganish uchun imkoniyat qiyinlashgan bo'lsa-da, xalqimiz hech qachon besavod bo'lib qolmagan. Sa'diy asarlarida ilm o'rganish, yoshlikdagi umrni behuda sarflamaslik, umr davomida o'qib o'rganish lozimligi qat'iy ta'kidlanadi:

Ban odam ilmdan topmish kamol,
Bekor bunda mansabu boyligu mol.

Bo'lsa bir hunaring, agar yuz aybing,
Do'st nazdida hunar yopar yuz aybing.

Shoir o'rganilgan ilmni amalga tatbiq etish, boshqalarga uning manfaatini yetkazish eng asosiy narsa ekanligini qayd etib, shunday deydi:

Harchand o'qib sen-ilmdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.

Ustiga kitob ortilgan eshak- Na
olim va na donodur, beshak.

Bugungi kunda dunyoning ruhiy va ma'naviy vaziyati juda og'ir holatda, davlatlar orasidagi dushmanlik, moddiy va siyosiy manfaatlar ortidagi kurashuvlar inson bolasining azoblanishi va hatto, qirilishiga sabab bo'lmoqda. Ammo kishilik jamiyati birlashgan holatdagina dunyoni qutqara oladi, buni anglash va anglatish muhim vazifamizdir. Sa'diy quyidagi matnda kishilarni birlashishga chaqiradi, mushkullarni birlashib yengish lozimligini uqtiradi va kuch birlikda ekanligini ta'kidlaydi: Ahdu paymol etsa do'stlar hech g'anim qo'rqinch emas, Sharti do'stlik shul erur paymonini buzmaydi yor.

Mingta qil, gar bitta-bitta bo'lsa qilcha quvvati
Eshilgach bitta arqonga uzolmas Isfandiyor,

Birlashsa chumoli ittifoq bo'lib, Arslon
terisin olajak shilib.

Shoirning fikricha, har qanday yaxshi natija, yaxshi kun mehnat va mashaqqatning ortidan keladi, zahmat chekmay turib kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Bu ma'noda qorong'u tunning ortidan yorug' kun kelishini misol qilib ko'rsatadi:

Mashaqqat chekmagan topmas xazina,

Tun ortidan kunduz kelar hamisha!-

Insonning husni, uning e'tibori chiroyli libosi, tashqi ko'rinishi bilan belgilanmasligi, odamzodning qadri uning botiniy dunyosi bilan bog'liq ekanligini shunday bayon etadi:

Tani odamiy sharif ast ba joni odamiyat,

Na hamin libosi zibost nishoni odamiyat.

(Odam tani jon bilan sharaflidur yagona, Zebo kiyim emasdir insonlikdan nishona).

Shoir asarlarida shohlar va xalqqa boshchilik qilayotganlarga ko'plab nasihatlarini uchratamiz, hatto alohida boblar shu mavzuga qaratilgan. Sa'diyga ko'ra, shohlar uchun eng oliy ibodat xalqqa xizmat qilishdir:

Ibodot o'zi xalqqa xizmat qilish,

Na tasbehda, na joynamozda bu ish.

Shu kabi ibrat bo'ladigan va yosh avlodga mukammal tarbiya beradigan dono fikrlarni mazkur shoir ijodidan ko'plab topishimiz mumkin. "Madaniyatimiz tarixida yaratilgan ajoyib badiiy boyliklar orasida munosib mavqega ega bo'lgan Sa'diy Sheroziy juda katta hayot tajribasiga ega bo'lgan donishmand shoirning hikmatli so'zlarga to'la asarlari dovrug'i Sherozdan Qashkargacha, Xitoy va Hindistondan Misr va Shimoliy Afrikagacha tarqalgan edi"(7, 8). Sa'diy kabi mutafakkir shoirlarimiz Sharq klassik adabiyotida juda ko'p, ularning asalari mutoalasni bugungi yosh avlodga targ'ib etish, ularning axloqiy yetukliklarini ta'minlashda klassiklarimiz fikrlaridan keng qamrovda foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan sanaladi. Zero bugungi globallashuv va innovatsion tez rivojlanish, ko'r-ko'rona g'arbga yondashuv davrida yoshlarimiz ongiga milliylik va sharqona axloq tamoyillarini singdira olsak, o'z aslidan uzoqlashmagan holda tashqi hayotni qabul qilish, ba'zi manfiatsiz odat va yashash tarzidan voz kecha olish, ichki va tashqi olamga xolis baho bera olish sirlarini o'rgata olsak, ularni to'g'ri hayotga yo'naltirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комилов Н. Бу қадимий санъат...- Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – 187 саҳ.
2. Қаямова Ф. Назаре ба тарҷумаҳои туркӣ-ӯзбекии осори адибони форсу тоҷик. - Маълумоти «Сунъи беъин» бахшида ба 60-солагии Савринисо Ғанизода. Хуљанд: Ношир, 2017.-саҳ. 455-463

3. Очил Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Шарқ зиёкори, 2017. – 210 сах.
4. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари Тошкент-Ўқитувчи-1983.- 232 б.
5. Шомуҳаммедов Ш. Одамийлик иншоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 312 б.
6. Шомуҳаммедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. – 200 б.
7. Шомуҳаммедов Ш. Саъдий Шерозий. – Тошкент: Фан, 1964. – 91 сах.

